
TOSHLOQ TUMANIDA “EZGULIK - SHIORIMIZ, MA’RIFAT - QUROLIMIZ!” SHIORI OSTIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TARG’IBOT TADBIRI BO’LIB O’TDI.

Bugun tumandagi 2-umumta’lim maktabiga "Ma’rifat" targ’ibotchilar jamiyati a’zolari, taniqli olimlar, shoir hamda san’atkorlar tashrif buyurdilar.

Mahallalarda istiqomat qilayotgan xotin-qizlar, oila bekalari, fan, ta’lim, madaniyat kabi yo’nalishlarda muvaffaqiyatga erishgan qizlar ishtirok etgan tadbirda O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Hamidjon Toshpo’latov, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori Shahlo Ahrorova, shoir Dilshod Rajab, xonanda Aziz Rajabiyilar mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar xususida so’z yuritdilar.

So’zga chiqqanlar muhtaram Prezidentimizning 8 mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o’tkazilgan marosimda so’zlagan nutqi hamda mamlakatimiz ayollariga qilgan murojaatlarini mazmun mohiyati haqida ta’kidlab o’tdilar.

Tadbir yakunida mehmonlar ilm-fan, madaniyat, sport kabi yo’nalishlarda yutuqqa erishgan o’quvchilarning onalariga tashakkurnomalar topshirdilar.

2024-03-14 10:57:58